

INGLIZ ALIFBOSINING EVOLUTSIYASI

Umirzaqova Ruxshona

Samarqand davlat chet tillar instituti

2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Qadimgi ingliz tili alifbosining hozirgi yangi ingliz alifbosigacha bo'lgan o'zgarishlar ustida taqqoslash

Kalit so'lar: *qadimgi harflar, runik alifbosi, buyum va hayvonlar surati, lotin alifbosi, alfa va beta*

KIRISH

Insonlarning bir biri bilan o'zaro muloqotda kerakli hisoblanadigan vositalaridan biri deb tillarni ayta olamiz. Yer yuzida har xil tillar mavjud bo'lib ularning kelib chiqish tarixi ancha qiziqarli deya olamiz. Qadimdan shunday fikrlar ham borki insonlar bir biri bilan munozara qila olishgan, savdo-sotiq va yaxshi munosabatlar yuzaga kela boshlagan. Juda ko'plab sharq va roman tillari ingliz xalqiga qo'shila boshlashgan vaholanki, ingliz tilining 30 foizi sof ingliz tiliga oid, qolgan qismi yuqoridagi tillardan kelib chiqqan degan fikrlar bor. Shu jumladan Ingliz tili alifbosining kelib chiqishi juda qiziqarli va har bir harfning paydo bo'lishi va qanday qo'llanilishida juda ko'p ma'lumotlar bor. Ammo ingliz tili alifbosini o'rganishda uzviy bog'lanishlar borki rivojlanishida ko'plab yillar talab qilgan. Taxminan 4000 yil oldin ilk ingliz alifbosi kelib chiqqani haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Ingliz alifbosining evolutsiyasi deyilganda ko'z oldimizga ingliz xalqining o'tgan asr va hozirgi asrgacha o'zgarib kelgan xarflari keladi. Tabiiyki ko'plab shaharlar va urf-odatlar o'zgartirish kabi til va undagi xarflar ham o'zgarishi kuzatiladi. Taqqoslab ko'rsak ingliz alifbosida sezilarli darajada o'tgan davrdagi alifboga qaraganda ko'plab jihatlari bor. Dastlabki alifbolar paydo bo'lgan davrlarda ingliz tili alifbosi 'runik' deb nomlangan negaki, o'sha qabila Futorkdan foydalanishgan chunki eski ingliz tili german qabilasi anglosaklar nazoratida bo'lgan. Ingliz alifbosi missionerlar ya'ni nasroniy tarafidan topilgan lotin alifbosi hisoblanadi degan ma'lumotlar ham bor.

1. Ingliz alifbosi shu kungacha har xil nomlanib kelingan jumladan, lotin tillar oilasiga kirgan ammo Rim alifbosi deb ham atalgan. Hozirgi rivojlangan alifbo bilan Miloddan avvalgi harflarni solishtirsak ancha farq kuzatiladi. Dastlabki harflar toshlar, o'simliklar, odamlar hayvonlar va tayoq kabi buyumlarga o'xshab tasvirlangan va ilk odamlar shunday ko'rinishda bir biri bilan muloqot qilishgan negaki harflardan ham oldin insonlarda ko'rish va uni tasvirlab berish tuyg'usi yuzaga kela boshlagan va yozma muloqot kerak bo'lganligi bois harflarni o'ylab topisha boshlashgan va bu davrni inglizlar Proto-Sinayt davri deb nomlashgan. Ikkinchi alifbo ham miloddan avvalgi davrda yana o'zgartirish kiritilgan. Ya'ni narsalarga qarab chiqarilgan harflar belgilar, tayoq, aylana kabi chiziq'larga o'zgarib boshlagan. Qadimgi lotin alifbosi rivojlanayotgan vaqtida esa hozirgi ingliz alifbosiga nisbatan o'xshashlik paydo bo'la boshladi. Hozirgi kungacha ingliz tili o'zgarishida yana bir ma'lumot borki, Buyuk Britaniya qismidan normand qabilalari ingliz xalqiga kirib olishadi va o'zaro tillari moslasha boshlaydi ammo ular bu tilni chiqara olishmaydi, chunki bu tillar mutlaqo singib, moslashib ketgan deyiladi hodisanodisani Superstrat hodisasi deya nomlashgan. Milliy tillar uch xil yo'l bilan paydo bo'ladi deb fikrlashganki chatishuv orqali paydo bo'lish yo'liga ingliz tilini ayta olamiz. Inhliz tili ham uch xil davrlardan o'tgan va bu yuqoridagi so'zlarda tahlil qilingan. Birinchisi, angolsaklar chatishuvi deymiz. Ikkinchisi, yozilganidek normandlar bosib olishgani desak uchinchi qismi XVI asrda William Shakespeare ijodi boshlanishi deya olamiz. Miloddan avvalgi Rim imperiyasi bosib olinganidan so'ng ingliz alifbosi deyarli ijobiy tarafga mukammalroq qilib yozila

boshladi va hozirgi zamonaviy ingliz alifbosiga nisbatan o'xshashlik kuzatilmaydi deb ayta olsak bo'ladi ammo "J","U","W" kabi harflar qo'shilishi bilan farq qiladi. Hozirgi zamonaviy ingliz alifbosining birinchi harfi "A" yoki "a" hisoblanadi. Bugungi ingliz alifbosida yigirma oltita harf mavjud xuddi Finikiya alifbosiga o'xshaydi qaysiki unda yigirma ikkita harflar bor. Shunday farazlar ham borki Rim alifbosi ham Angliyaga Irlandiya orqali kelgan deb ishonishadi. Ingliz tilidagi alifbodagi bosh harflar "alfa" va "beta" yunon alifbosiga o'xshaydi degan fikrlarni ham bayon etishgan. Ingliz tilida keyinchalik harflarni unli va undosh harflarga bo'lishgan. Unli tovushlar talaffuzda to'siqqa uchrashi va undosh tovushlarda esa lablar, bosh qismidagi tana a'zolari jumladan til, og'iz kabilar talaffuzda o'ta muhim qism hisoblangan. Yigirma bitta undosh harflar va beshta unli kiritilgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shunday qaraladiki, ingliz tili evolutsiyasi bu hozirgi kunda ancha yuqori rivojlanganligi va bu jamiyat uchun juda foydali ekanligi bilinadi. Agar tillar yaxshi tomonga o'zgarib rivojlansa inson jamiyatda boshqa insonlar bilan muloqoti yanada osonroq va ravon bayon etiladi. Agar qadimdan bu til o'zgarmay o'smay kelganida hozirgi yoshlarning ahvoli yomonroq bo'lar edi va nafaqat yoshlar balki kelajak yoxud ajdodlarimiz ham muloqotda qiynalishar va bu katta bahs munozaraga olib kelishi mumkin "Til-shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa-tilning ofatidir" (Alisher Navoiy). Bunday fikrlar mutlaq tillarning tog'ri va shakllanishida katta ma'no borligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Qosimova, Q. Qosimov. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun Qo'llama. Chortoq shahri
2. J. Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi. Tashkent
3. https://www.todayifoundout.com/index.php/2013/09/the-origin-of-the-english-alphabet/#google_vignette
4. <https://www.daytranslations.com/blog/origin-english-alphabet/>
5. N.N. Zubaydova. The teaching of English for specific purpose.
6. N.N. Zubaydova. Learning English with phrases.